

YONG'OQ YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

**B.Nosirov, M.Qobulova, B.Raxmonova,
O.Shermatov, M.Xojiboyev**

Global iqlimni o'zgarishi sharoitida dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va muassasalari tomonidan yong'oq yetishtirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, yong'oqning serhosil turlarini hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlarga mos holda tanlab olish va ko'paytirish, yong'oq va yong'oq mahsulotlarini sotish tizimida zamonaviy marketing usullarini joriy etish, sohada innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish, yuqori sifatli mahsulotni sanoat usulida yetishtirilgan tanlangan navlar ko'chatlaridan olish, intensiv yong'oqchilikning tashkil etish hamda ishlab chiqarishning texnik va texnologik parametrlar bo'yicha platformalar yaratish kabi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz tog'li hududlarining iqlim sharoiti yong'oq, bodom, pista kabi daraxt ko'chatlarining o'sishi va yuqori hosil berishi uchun nisbatan qulay makon hisoblanadi. Shu bois, yong'oq yetishtirish va ushbu mahsulotni qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirishga yo'naltirilgan keng tarmoqli tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Ammo "... sohada ayniqsa, meva-sabzavotchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, ilmiy yondashuvning yetarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong'oqdan 5 baravar ko'p daromad olish imkoniyati mavjud"¹. Shuningdek, respublikada yillik yong'oq iste'moli bir kishiga o'rtacha 1,8-2,4 kg² ni tashkil etgani holda tibbiy me'yorga nisbatan bu ko'rsatkich 6,2 barobarga kam. Shu bois, bugungi kunda intensiv yong'oqchilikni rivojlantirish hamda tarmoq samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etish asosida ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarflik kasb etmoqda.

Qishloq xo'jaligida yong'oq ishlab chiqarishni rivojlantirish, grek yong'og'i hosildorligini oshirish va tog' oldi mintaqalarida bog'dorchilikni rivojlantirish masalalari bilan xorijlik agroiqtisodchi olimlardan H.Adem & Peter H.Jerie, Larry Harper, Dr. William Kurtz, rossiyalik iqtisodchi olimlar Nazranov X.M., Xashir A.A., M.Baxshinejad kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirish, kooperatsiya munosabatlari, intensiv bog'dorchilikni iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yechimlar O'.Umurzakov,

1 С.Хасанов Ўзбекистонда мева-сабзавотчиликни ривожлантириш тенденциялари ва истикболлари. // Ж.: Экономическое обозрение, 2020. - №6 (246). - 56-61-бет.

2 F.Ahrorov, H.Avezov O'zbekistonning yong'oq ishlab chiqarish salohiyati va istiqbollari: Samarqand viloyati kesimida. Current issues of bio economics and digitalization in the sustainable development of regions. International scientific - practical conference. 764-769- betlar


N.Xushmatov, O.Jumaev, O.Sattorov kabi qator agrar iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini aniqlashda, birinchi galda, yong'ov yetishtirish va sotish xarajatlari tarkibida qaysi xarajatlarning ulushi nisbatan yuqoriligi atroflicha tahlil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Tahlillarning ko'rsatishicha, grek yong'og'i yetishtirish xarajatlarning tarkibida dastlab yong'oqzorlar barpo etish davrida eng katta xarajat ulushi sifatida ko'chat va ko'chat yetkazib berish uchun sarflanadigan xarajatlar, agrotexnologik xarajatlar tashkil qilmoqda.

Umuman olganda, bizningcha, yong'ov yetishtirish va sotishning iqtisodiy samaradorligini baholashda birinchidan, yong'ov yetishtirish va sotish xarajatlarning tarkibiy qismlarini aniqlab olib, to'g'ri hisobini yuritish kerak.

Bundan tashqari, yong'ov yetishtirishning xususiyatlari, iqtisodiy jihatlari, ekilgan ko'chatlar soni va ekish sxemasi, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurash tizimining mavjudligi, ichki va tashqi bozordagi mahsulotga bo'lgan talabning barqarorligi, bozordagi narxning shakllanish xususiyatlari va boshqa jihatlarga chuqur e'tibor bergan holda atroflicha tahlil qilib, so'ngra iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini ilmiy-nazariy jihatdan to'laqonli asoslash mumkin.

Mazkur 1 kg yong'ov mevasini intensiv tarzda yetishtirish uchun zarur bo'lgan tomchilatib sug'orish tizimi jihozlari qiymati, 1 tup intensiv yong'ov daraxtidan olingan yong'ov miqdori, 1 kg yong'ov yetishtirish uchun talab etiladigan suv hajmi, 1 tup yong'ov daraxtiga ishlov berish uchun to'g'ri keladigan mehnat sarfi, 1 tup yong'ov daraxtida yetishtirilgan yong'oqning tovarlilik darajasi, 1 tup yong'ov daraxtida yong'ov yetishtirishning xarajatlar rentabelligi kabi samaradorlik ko'rsatkichlari intensiv yong'oqchilik xo'jaliklarida yong'ov yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash va tahlil qilish imkonini beradi (1-rasm)



Izoh: punktir chiziqli kvadratlardagi ko'rsatkichlarni muallif tavsiya qilmoqda.

1-rasm. Intensiv yong'oqchilikda yong'oq yetishtirish iqtisodiy samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi³

Keltirilgan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha har bir ko'rsatkichni alohida hisoblash usullarini keltirib o'tamiz:

Qiymat ko'rsatkichlari:

$$\mathbf{YoEt = JT / YaH [so'm/kg]} \quad (1)$$

bu yerda,

YoEt – 1 kg yong'oq yetishtirish tannarxi;

JT – jami tannarx, so'm;

YaH – grek yong'og'i yalpi hosili, kg.

$$\mathbf{F_{ga} = F / E_m [so'm/ga]} \quad (2)$$

bu yerda,

F_{ga} – 1 ga ekin maydoniga to'g'ri keladigan foyda, so'm;

F – yalpi foyda, so'm;

E_m – yong'oq ekilgan ekin maydoni hajmi, ga.

$$\mathbf{STT = YaM * B_n [kg*so'm]} \quad (3)$$

bu yerda,

STT – sotishdan tushgan tushum, so'm; YaM – yalpi mahsulot, kg; B_n – mahsulotning bozor narxi, so'm.

Natural ko'rsatkichlar:

$$\mathbf{H_{yo} = YaH / E_m [s/ga \text{ yoki } t/ga]} \quad (4)$$

bu yerda,

H_{yo} – yong'oq hosildorligi, s/ga;

YaH – yalpi hosil, s/ga;

E_m – yong'oq ekilgan ekin maydoni hajmi, ga.

$$\mathbf{YaH = H_{yo} * E_m [s/ga \text{ yoki } t/ga]} \quad (5)$$

bu yerda,

YaH – yalpi hosil, s/ga.

$$\mathbf{MS_{ga} = MX / E_m [kishi/soat/ga]} \quad (6)$$

bu yerda,

MS_{ga} – 1 ga maydon uchun mehnat sarfi (kishi-soat yoki kishi-kun/ga).

$$\mathbf{MU_{ga} = MU / E_m [kg/ga \text{ yoki } tonna/ga]} \quad (7)$$

bu yerda, MU_{ga} – 1 ga ekin maydoniga to'g'ri keladigan mineral o'g'it miqdori, kg/ga;

MU – jami sarflangan mineral o'g'it hajmi (kg, s, t).

Nisbiy ko'rsatkichlar:

$$\mathbf{R_x = SF / JX * 100 [\%]} \quad (8)$$

³ Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

bu yerda,

R_x – xarajatlar rentabelligi darajasi, %;

SF – sof foyda, so‘m;

JX – jami xarajatlar (mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari), so‘m;

SF - bu foyda bilan majburiy to‘lovlar (soliq tushumlari) o‘rtasidagi tafovut orqali aniqlanadi.

$$R_s = SF / JST * 100 \quad [\%] \quad (9)$$

bu yerda,

R_s – sotish rentabelligi, %;

JST – mahsulot sotishdan olingan jami sof tushum, so‘m.

Yong‘oqchilikda daromadning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlari kamayishiga erishiladi.

Yong‘oqchilik sohasining samaradorlik ko‘rsatkichlarini makro, mezo va mikro darajada tadqiq etish yong‘oqchilik sohasini atroflicha tahlil etishga xizmat qiladi. Sohadagi tarkibiy o‘zgarishlar tendensiyalari bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘ladi.

1 kg yong‘oq mevasini intensiv tarzda yetishtirish uchun zarur bo‘lgan tomchilatib sug‘orish tizimi jihozlari qiymati, 100 m² maydonga to‘g‘ri keladigan o‘tkazilgan ko‘chatlar soni, 100 m² ekin maydonidan olingan yong‘oq miqdori, 1 kg yong‘oq yetishtirish uchun talab etiladigan suv hajmi, 100 m² maydonga to‘g‘ri keladigan elektr-energiya sarfi, 100 m² ekin maydonida yetishtirilgan yong‘oqning tovarlilik darajasi, 100 m² ekin maydonida yong‘oq yetishtirishning xarajatlar rentabelligi kabi samaradorlik ko‘rsatkichlari intensiv yong‘oqchilik xo‘jaliklarida yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash va tahlil qilish imkonini beradi.

Yong‘oqchilikni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarning quyidagi jihatlarini respublikada joriy etish maqsadga muvofiq. Jumladan,

➤ yong‘oq yetishtirishda yong‘oq yetishtirish xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida subsidiyalarni joriy etish; ilmiy-tadqiqotlarni kuchaytirish va amaliy va innovatsion loyihalarni bajarish, xorijiy mutaxassislarni keng jalb etgan holda seminar-treninglar tashkil etish; malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash va tajribasini oshirish uchun xorijiy universitetlar va markazlarga stajirovkalarga yuborishni tashkil qilish;

➤ sohada konsalting xizmatini tashkil etish va onlayn platforma hamda mobil ilovani yaratish; hosildorligi yuqori yong‘oq turlarini ko‘paytirish (masalan: "Chandler" turi) va intensiv yong‘oqchilikni rivojlantirish. Ushbu tadbirlar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga katta foyda keltiradi hamda mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shermatov, O., and M. Kobulova. "Criteria and indicators of evaluation of economic efficiency in agriculture." *Актуальная наука. Международный научный журнал*. ISSN (2019): 2587-9022.

2. Olimjonova, G. M., and O. Shermatov. "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda meva-sabzavotchilik sohasining o'rni." *Ilmiy amaliy agroiqtsodiy jurnal* 2 (2021): 20.

3. Shermatov, O. "Issues of increasing production efficiency in agriculture." Electronic journal of actual problems of modern science, education and training 7 (2020).
4. Sultanov, Bakhodir, et al. "The economic feasibility of cultivating intensive orchards." E3S Web of Conferences. Vol. 284. EDP Sciences, 2021.
5. Shermatov, O. A., and G. M. Olimjonova. "Factors affecting the efficiency of agricultural production." Актуальная наука 1 (2021): 34-37.
6. Shermatov, O., and N. Ismatova. "Ways to increase the economic efficiency of cotton in Uzbekistan." Экономика и социум 6-1 (97) (2022): 252-256.
7. Мамажонов, Акрамжон Тургунович, Ботирали Юлдашев, and Иброхимжон Сотволдиевия Фозилжонов. "ВЗАИМОСВЯЗЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И ЭКОНОМИКИ ПРЕДПРИЯТИЯ." ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ: теория и практика 6 (2016): 17-21.
8. Мамажонов, А. Т., et al. "Вопросы оценки нематериальных активов и их классификация." Экономика, социология и право 6 (2016): 22-26.
9. Юлдашев, Б. Т., et al. "ОРГАНИЗАЦИЯ АУДИТА НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ." Экономика, социология и право 6 (2016): 44-46.
10. Mamazhonov, Akramjon Turgunovich. "CONCEPTUAL ISSUES OF ACCOUNTING FOR FINISHED GOODS IN THE AUTOMOTIVE INDUSTRY." Theoretical & Applied Science 12 (2020): 373-376.
11. Мамажонов, А. Т., and Ш. Қ. Қодиров. "ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР СОҲАСИДАГИ ИЛФОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР: КЕЙС-СТАДИ." Academic research in modern science 1.10 (2022): 4-8.
12. Turgunovich, Mamajonov Akramjon. "KO 'P TARMOQLI FERMER XO 'JALIKLARIDA HISOB YURITISHNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI." IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI 3.6 (2023): 66-68.
13. Носиров, Баходиржон, and Барно Рахмонова. "Ўзбекистонда ёнғок ишлаб чиқаришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш йўллари." Иқтисодиётда инновациялар 10 (2020): 173-181.
14. Носиров, Б., and Б. Рахмонова. "Ўзбекистонда ёнғок етиштиришни ривожлантириш истикболлари." Иқтисодиётда инновациялар" журналы 8 (2020): 79-85.
15. Rakhmonova, B. S. "Prospects for the development of walnut cultivation in Uzbekistan." Journal " Sustainable agriculture" ISSN (2021): 2181-9408.
16. Nosirov, B., and B. Rakhmonova. "Prospects for the development of walnut cultivation in Uzbekistan." Journal " Innovations in the economy 8 (2020): 79-85.
17. Rakhmonova, B. S. "Directions for increasing investment activity in the field of walnut growing and processing at the national and regional

levels." Electronic journal of actual problems of modern science, education and training 7 (2022): 24-29.

18. Рахмонова, Б. "Роль производства орехов в мировой экономике." Сборник научных трудов международной конференции молодых ученых "наука и инновации. Vol. 1. No. 11. 2019.

19. Shermatov, O., and M. Kobulova. "Criteria and indicators of evaluation of economic efficiency in agriculture." Актуальная наука. Международный научный журнал. ISSN (2019): 2587-9022.

20. Қобулова, М. Я. "Қишлоқ хўжалик тармоқлари интеграциясини ривожлантиришда инсон капиталидан самарали фойдаланиш. ISSN 2091-573 X Хоразм маъмур академияси ахборотномаси-10/2020, илмий журнал.-№ 10 (67) 72 бет."

21. Yakibovna, Qobulova Maxpubaxon. "Effective use of human resources in the development of agro-industrial integration." Journal of "Iqtisodiyotda innovatsiyalar". ISSN: 2181-9491.

22. Qobulova, M. Ya. "Effective use of human capital in the development of integration of agricultural sectors." ISSN 2091: 573.

23. Rekhviashvili, E. I., et al. "Immuno-biological reactivity to fascioliasis in Sheep." Journal of Livestock Science (ISSN online 2277-6214) 12 (2021): 56-59.

24. Kobulova, M. Ya. "The role of human capital in the development of labor potential." Актуальная наука 1 (2021): 31-33.

25. Nosirov, Bahodirjon, and Shoxruxbek Tulakov. "Opportunities to increase land efficiency in farming." Innovative Technologica: Methodical Research Journal (IT). ISSN: 2776-0987 2.5 (2021): 175.

26. Nosirov, Bahodirjon, and Feruza Sobirova. "Effect of Production of Quality Products on Productivity in Livestock Farms." Procedia on Digital Economics and Financial Research 1 (2022): 18-24.

27. Nosirov, Bahodirjon, and Akbarali Abdurashidov. "IMPROVING THE EFFICIENCY OF LOANS IN FARMS." Journal of new century innovations 23.2 (2023): 14-18.

28. Karimov, N., and B. Nosirov. "The role of information technology in the activities of farms." Russian Electronic Scientific Journal 4 (2013): 16-21.

29. Erkinov, E., and B. Nosirov. "Leading experiences of development of agrotourism." American Journal of Science and Learning for Development 1.2 (2022).

30. Nosirov, Bahodirjon, and Dilobar Fakhridinova. "Reducing the cost of products in agroclusters in the digital economy." Journal of new century innovations 23.2 (2023): 19-24.

31. Shodimukhamedovich, Khojiboev Mukhiddin, and Kodirov Shukhratbek Kutbidinovich. "ORGANIZATION OF INTERNAL AUDIT SYSTEM IN BUDGETARY ORGANIZATIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.06 (2022): 25-27.

32. Shodimuxammedovich, Xojiboyev Muxiddin. "OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR

HISOBINING NAZARIY ASOSLARI." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI 3.6 (2023): 138-141.

33. Хожибоев, Мухиддин Шодимухаммедович. "Роль анализа финансового состояния в разработке финансовой политики предприятия." Economics 5 (43) (2019): 55-57.

34. Abdullaev, Bakhodir, et al. "Leading research trends on innovation funding: a bibliometric analysis approach." Journal of Data Acquisition and Processing 38.1 (2023): 461.

35. Kutbidinovich, Kodirov Shukhratbek. "Improvement of internal audit in budgetary organizations." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 135-139.

36. Turgunovich, Mamazhonov Akramjon, Xojiboev Mukhiddin Shodimukhamedovich, and Komolov Khursanbek Khasanaovich. "IMPROVING THE ORGANIZATION OF MANAGEMENT ANALYSIS IN AGRICULTURE." International Journal of Early Childhood Special Education 14.3 (2022).